

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari227

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari231

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov

Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish235

U.X.Gulmatov

O'zbekiston milliy transport tizimining iqtisodiy asoslari.....239

FALSAFA

M.M.Abduraxmonova, D.O.Akramov

Umumta'lim maktablarida xavf guruhidagi oila farzandlarini ijtimoiylashuvida mahalla ijtimoiy xodimining ahamiyati.....246

Q.Sulaymonov

O'rta asr Islom Sharqi allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining qiyosiy induksiyasi253

X.A.Yulbarsova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....258

I.A.Asatulloev

Alfred Adlarning qalb konsepsiyasida inson kamolotining ijtimoiy omillar bilan shartlanganligi.....264

I.A.Suvanov

Axborot jamiyatida insonni kutayotgan yangi muammolar xususida ayrim mulohazalar268

M.Y.Ergashov, Z.I.Narziyev

Qomusiy alloma Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi.....273

M.K.Soipova

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda fan va islom qadriyatlarini tushunchasining mazmun mohiyati.....277

I.B.Toshpo'latov

Jamiyat taraqqiyotida filantropik harakatning ahamiyati.....281

З.С.Касимова

Цифровизация и гуманитарное образование: сотрудничество и инновации284

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev

O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda xalqaro maydondagi tashabbuslari.....290

O'.N.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ma'naviyatini yuksaltirish zarurati.....296

M.T.Musayev

Globalashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri.....300

G.S.Ro'ziyeva

Madaniyat va milliy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini belgilashning o'ziga xosligi305

TARIX

B.X.Matboboyev, A.A.Aloxunov

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Mingtepa shahar xarobasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari xususida311

J.Sultonov

Chingizxonning markazlashgan davlatga asos solishida ittifoqchilik va diplomatiyaning roli....318

X.X.Azimov

Qadimgi Xitoy manbalarida Usun davlati.....329

J.Z.Axmedov



UO‘K: 316.4:297.1

**YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA FAN VA ISLOM QADRIYATLARI
TUSHUNCHASINING MAZMUN MOHIYATI****СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ НАУКА И ИСЛАМСКИЕ ЦЕННОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ
МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ****THE CONTENT OF THE CONCEPT OF SCIENCE AND ISLAMIC VALUES IN FORMING
YOUTH'S WORLD VIEW****Soipova Mavjuda Karimjanovna**

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada fandagi izlanishlar tizimli obyektlarning tarkibiy predmetlardan sivilizatsiya rivojlanishining hozirgi bosqichida o‘zlashtirilayotgan o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi murakkab tizimlarigacha bo‘lgan har xil tiplarini o‘rganadi. Bugungi kunda fan yutuqlaridan samarali foydalanish ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat farovonligida va inson extiyojlarini qondirilishida ustuvorlik kasb etmoqda. Shuningdek, ilm-fanni yuksak qadrlash tuyg‘usini shakllantirish, jamiyatda ilmni e‘zozlovchi insonlarni tarbiyalash vazifalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Аннотация

В данной статье научные исследования изучают различные типы систематических объектов, от структурных объектов до саморазвивающихся сложных систем, освоенных на современном этапе развития цивилизации. Сегодня эффективное использование научных достижений приобретает приоритет в социальном развитии, благополучии общества и удовлетворении потребностей человека. Также особое внимание уделяется задачам формирования высокого уважения к науке и воспитания в обществе людей, уважающих науку.

Abstract

In this article, scientific research studies various types of systematic objects, from structural objects to self-developing complex systems that are mastered at the current stage of civilization development. Today, the effective use of scientific achievements is gaining priority in social development, the well-being of society and the satisfaction of human needs. Also, special attention is paid to the tasks of forming a high appreciation of science and educating people who respect science in society.

Kalit so‘zlar: Ilm-fan, islom, ijtimoiy taraqqiyot, dialektik, sinergetik, deterministik, milliy va umuminsoniy manfaatlar, progressiv taraqqiyot, axloqiy qadriyatlar, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik.

Ключевые слова: Наука, ислам, социальное развитие, диалектические, синергетические, детерминированные, национальные и общечеловеческие интересы, прогрессивное развитие, моральные ценности, эстетические, политические, правовые, демократические.

Key words: Science, Islam, social development, dialectical, synergetic, deterministic, national and universal interests, progressive development, moral values, aesthetic, political, legal, democratic.

KIRISH

Bugungi kunda fan yutuqlaridan samarali foydalanish ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat farovonligida va inson extiyojlarini qondirilishida ustuvorlik kasb etmoqda. Shuningdek, ilm-fanni yuksak qadrlash tuyg‘usini shakllantirish, jamiyatda ilmni e‘zozlovchi insonlarni tarbiyalash vazifalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Har bir davlat o‘zining ilmiy imkoniyatlarini oshirish, fan taraqqiyotini yaratishga doir islohotlarni jadallashtirmoqda. O‘zbekiston ham o‘zining yangi taraqqiyot bosqichida ilm-fanni yuksak qadrlash tuyg‘usini ijtimoiy muhitda shakllantirish, jamiyatda ilmni e‘zozlovchi insonlarni tarbiyalash vazifalariga alohida e‘tibor qaratmoqda. Zero, “oliy ma‘lumot olaman, o‘z ustimda ishlayman, degan, yuragida o‘ti bor, jo‘shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart”. Bu ishlarning natijasi sifatida ta‘lim sifatining oshishi, raqobatbardosh kadrlar avlodini yetishib chiqishi ham tezlashib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi vaqtda falsafa fanining e'tibor markazida turgan muammo – inson muammosidir, ya'ni insonning tabiatga, jamiyatga, kishilarning bir-biriga munosabati, ularning rivojlanish qonuniyatlarini ongli ravishda aks ettirishdan iboratdir. Bundan ko'rinadiki, insonning falsafiy tafakkur madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish falsafa fanining markazida turgan asosiy muammoni tashkil etadi.

Inson tafakkuri fanning paydo bo'lishiga, ilmiy bilish metodlarining bilish jarayoniga faol tatbiq etilishiga, fundamental fanlarning rivojiga mustahkam zamin yaratdi. Chunki, "Dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo'nalishida qo'lga kiritilgani bejiz emas. Shuning uchun endilikda fundamental fanlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohani iqtidorli yosh kadrlar bilan ta'minlash davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda". Shunday ekan, fundamental fanlar rivojini ta'minlashda fan taraqqiyoti jarayonini yoritish, fanlarni o'rganuvchilarda to'g'ri tushunchalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Fanning paydo bo'lishi va unda aks ettirilgan "fan" tushunchasining yuzaga kelishi insoniyat tarixi bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Jamiyat inson taraqqiyoti va ehtiyojlarining globallashib borishi hamda obyektiv jarayoniga mos ravishda ijtimoiy holatda fanning rolini ortishi evolyutsion tarzda insonning ongli ilmiy faoliyatini shakllantirishga olib keldi. Jamiyatning progressiv taraqqiyotiga mos ravishda insonning boshqa ijtimoiy faoliyat turlari bilan birga fan sohasi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy faoliyati paydo bo'ldi. Mazkur faoliyat ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega bo'lib, jamiyat va inson hayotini tobora kengroq qamrab bordi. Natijada jamiyat hayotida inson faoliyatining yangi turi ilmiy faoliyat hamda ma'naviyatning yangi sohasi fan paydo bo'ldi.

"Fan – reallik haqidagi obyektiv bilimlarni tayyorlash va nazariy tizimlashtirish funksiyasiga xos bo'lgan inson faoliyati sohasidir. Tarixiy taraqqiyotda fan jamiyatda ishlab chiqarish kuchiga va muhim ijtimoiy institutga aylanadi. Fan tushunchasi o'zida yangi bilimni egallashdagi faoliyat va shu faoliyat natijasida dunyoning ilmiy bilish nazariyasi haqidagi shu davrgacha bo'lgan ilmiy manzarasi haqidagi shu davrgacha bo'lgan ilmiy bilimlarni mujassamlashtiradi".

Fanga O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida quyidagicha ta'rif berilgan: "Fan" falsafiy tushuncha bo'lib, avvalo, inson faoliyatining sohasi, olam haqidagi bilimlar tizimi, shuningdek, ijtimoiy ong shakllaridan biri. Fanning bevosita maqsadi o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir". Demak, fan voqelikning qonunlarini topishga qaratilgan jarayon bo'lib, inson ongli faoliyat turi va ijtimoiy ong fenomeni hisoblanadi.

Fan ijtimoiy ongning shakli sifatida ijtimoiy borliq va bizni o'rab turgan olamni ilmiy tasavvur etish, tushunish va nazariy tizimga solishning o'ziga xos etadigan bilimlar yig'indisi yoki fan ma'naviy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, tushuncha, qonunlar, nazariyalar uning asosiy mahsuli hisoblanadi. YA'ni, fan o'zining tarkibi va vazifalariga ega bo'lgan va ularni muayyan ijtimoiy meyorlar va madaniy shakllar asosida amalga oshirishni ta'minlaydigan ijtimoiy muassasa, olimlarning ta'kidlashicha, muayyan tarixiy bosqichda fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanadi.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda fan mohiyatini ta'riflashda tushuncha bilan u ifodalaydigan narsa va hodisalarni ayniylashtirish va buning natijasida fanga nisbatan sodda ta'rif berish, shuningdek, fanga faqatgina ijtimoiy ehtiyojini qondirish mahsuli sifatida qarash kabi hollarni kuzatish mumkin. Jumladan, faylasuf olimi N.Shermuhammedova: "Fan – inson va jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. "Fan" olam haqidagi bilimlar tizimi (olam, jamiyat, inson), Fan – yangi bilimlarni egallashdagi inson faoliyati, fan jamiyat, davlatni tashkil qilish, shakllaridan biri", – deb e'tirof qiladi.

Mazkur tushunchani ta'riflashda uning hamma tomonlarini emas, balki muhim belgilarini ajratib ko'rsatilishi kerak. Shu ma'noda "Fan"ga falsafiy yondashish uning barcha qirralari va funksiyalarini ochib berish imkoniyatlarini beradi. Ya'ni fan deganda hamisha ijodiylik, ijobiylik, yangilik, insoniylik, ezgulik, taraqqiyot, inson kelajagi, qadriyat kabi tasavvurlar ko'z oldimizda namoyon bo'lishi kerak. Demak, "fan"ni ijobiy va salbiy, ilg'or va qoloq fanlarga ajratish yoki bo'lmasa fanni milliy, umuminsoniy sifatida qarash mumkin emas. Fan shunday ijtimoiy fenomen (hodisa)ki, uning tub mohiyatini har tomonlama ifodalaydigan ta'rif berish murakkab masaladir.

Fanga ma'naviy ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaralsa, unda ilmiy tushunchalar, usullar, konsepsiyalar ma'naviyatning ilmiy faoliyati mahsuli, deb aytish mumkin. Fanning ijtimoiy faoliyati nuqtai nazaridan ta'riflasak, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot evalyutsiyasi fanning ishlab chiqarish kuchiga aylanib borganini ko'ramiz. Rus olimi V.F.Shapavalov fan nima degan savolga fan falsafa sohasida fanni asosan uch burchakli model sifatida tushunish keng tarqalganligini ta'kidlaydi.

FALSAFA

Bunday tushunish borasida fan quyidagicha: insonni o'ziga xos faoliyati bilimlarning yig'indisi sifatida ma'lum mezonlarga javob beruvchi ijtimoiy hodisa va ijtimoiy institut, ya'ni ijtimoiy tizimda ma'lum rol o'ynaydigan muassasalar yig'indisi sifatida anglanadi.

Milliy ma'naviyatning muhim tomonini tashkil etuvchi ma'naviy qadriyatlar (axloq, din san'at, huquq, siyosat) tizimida ilmiy qadriyatlarning roli beqiyos. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda asrlar davomida evolyutsion tarzda shakllanib va rivojlanib kelgan ilmiy qadriyatlarning rolini falsafiy tahlil etish, bu borada fanga to'g'ri aksiologik munosabatni shakllantirish muhim strategik ahamiyatga ega.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlar tizimida ilmiy qadriyatlar o'ziga xos o'rin tutadi. Ilm-fanga aksiologik munosabatni yuksaltirish jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlarni aqliy intellektual salohiyati asosida ilmiy qadriyatlar fanning qadriyatlar tizimida yetakchi o'ringa ega bo'lishiga erishish bir tomondan jamiyatni modernizatsiya qilishni, ikkinchi tomondan, modernizatsiyaning subyektiv ilmi, intellektual, taraqqiy etgan barkamol shaxsning tarbiya qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirda jamiyatda murakkab, ba'zan ziddiyatli yangilanish jarayoni amalga oshayotgan bo'lib, bu obyektiv jarayon iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohani to'la qamrab olgan. Bu jarayonda boshqa qadriyatlar qatori ilmiy qadriyatlar o'ziga xos o'rin tutadi. Bugungi modernizatsiya jarayonlarining samarali bo'lishida, ularga yoshlarning faol munosabatini shakllantirishda jamiyat hayotida ilmiy qadriyatlarning rolini anglab yetish fanga aksiologik munosabatni shakllantirish muammosini hal etishning dolzarbligi qayd etiladi.

Ingliz olimi Jon Bernal fanni jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida shunday yozadi: Fan shunday keksa, u o'z tarixida chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirdi, uning har bir qoidasi inson faoliyatining turli tomonlari bilan bog'liq, shu tufayli fanga ta'rif berishga urinish bilan uning u yoki bu tomonlarini aniq ifodalash mumkin xolos. Ushbu fikrlaridan anglash mumkinki, fanga ta'rif berish uning qamrovini toraytirishi, imkoniyatini cheklashi mumkin.

Islom dini Osiyoda faqat arablarning dini bo'lib qolmadi, u ko'pgina sharq xalqlarining xam umumiy diniga aylandi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qur'onda ilohiy qadriyatlar alohida ta'riblanib, xalqlarimiz tarixi va madaniyatinga nihoyatda katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sirning ahamiyatini turlicha baholash, tahlil qilish mumkin, ammo uning o'tmishda ham muayyan qadrga ega ekanligini inkor qilishning ilohi yo'q. Zaminimizda yashagan har bir mutafakkir, olim, alloma ijodida islom dini ilohiy qadriyatlarining ta'siri yaqqol sezilib turadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Vatanimiz sivilizatsiyasining qadriyatlari arablar dunyosi madaniyati ning rivojiga ham katta aks ta'sir o'rsatganligi shubhasiz. Horazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Ulug'bek kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy, at-Termiziy, Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy. Bobur, Bedil, Mashrab kabi zotlarning kamolotida nafaqat islom qadriyatlari, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarining ta'siri beqiyos. Ularning islomga, uni zamona zayllari orasidan o'tishi jarayoniga ta'sirlari to'g'risida maxsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Zamonaviy islom ilohiyotchilarining al-Buxoriy asarlarini Qur'ondan keyingi muqaddas kitoblar sifatida tan olayotganliklari, al-Buxoriy asarlarini Qur'ondan keyingi muqaddas kitoblar sifatida tan olayotganliklari, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy va Naqshbandning qabrlariga muqaddas sajdagohlar sifatida sig'inishlari bejiz emas! Manbalar yetarli bo'lishiga qaramasdan yurtimiz sivilizatsiyasining islom dini rivojiga va azaliy islom mamlakatlarining madaniyati taraqqiyotiga aks ta'siri to'g'risida yozilgan asarlar haligacha yetarli emas, bu to'g'rida tadqiqotlar olib borish zaruriyati allaqachon yetilgan.

Islomiy qadriyatlar odamlarning falsafiy, diniy, siyosiy, ahloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkuri dunyoqarashlarida yaqqol namoyon bo'lsa ma'naviy qadriyatlar amaliy jihatdan insonning barcha xatti-harakati, xulqi, odobi, faoliyati, insonlar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Fan va islom qadriyatlari jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridanoq insonni ma'naviy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan holda vujudga kelgan. Fan va islom qadriyatlari insonning aqliy, intellektual qobiliyatining mahsuli sifatida, ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib kelgan. Demak, "Fan – anglangan bilish metodlari asosida tizimli bilimlarni yaratuvchi maqsadli bilish faoliyatidir".

Shunday ekan, innovatsiyani chetdan olib kirish emas, o'zimizdagi yashirin imkoniyatlarni ham kashf etish zarur.

Fanning keyingi inqilobiy rivojlanishi texnika-texnologiyalar bilan, axborot texnologiyalarining yaratilishi bilan bog'liq. Kompyuter texnologiyasi, informatsiyaga bog'liq fanlar globallashib borishi davrida genetikaning, ayniqsa, genetik iyerarxiyasining ahamiyatining ortishi, fan esa moddiy va ma'naviy boyluk manbai sifatida e'tirof etilishi natijasida uning ahamiyati birinchi o'ringa chiqib qoldi.

XULOSA

Davlatimiz rahbarining fikricha, "... hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o'rtaga qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin". Shunday ekan, innovatsiyani chetdan olib kirish emas, o'zimizdagi yashirin imkoniyatlarni ham kashf etish zarur. Inson omili funksiyalarini kompyuterlarga topshirish masalasi yuzaga kelgani munosabati bilan falsafaning gnoseologiya ta'limotida sun'iy aql tushunchasi vujudga keldiki, fan, inson, jamiyat, texnika, ijtimoiy ong va boshqa mavzularga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: “Ўзбекистон” 2020й.
2. <http://www.lex.uz/docs/4320713>. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги ПҚ-4306-сон “Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” 2017й.
4. Философский энциклопедический словарь. – Москва: 1983г.
5. Ўзбекистон *Миллий энциклопедияси*. 9-том. –Тошкент: Ўз.МЭ. 2005й.
6. Отамуратов С. Глобаллашув: Миллатни асраш масъулияти. – Тошкент: “Ўзбекистон” 2018й.
7. Назаров Қ. Ўзбек фалсафаси тарихи. – Тошкент: “Муҳаррир” нашриёти. 2020й.
8. Шермухаммедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. – Тошкент: “Алоқачи” 2008й.